

8-sinf O'zbekiston tarixi

I bob bo'yicha testlar

I bob, 1-variant

- Husayn Boyqaro Amir Temurning ... nabirasi edi.
A) birinchi o'g'li Jahongirning B) ikkinchi o'g'li Umarshayhning
C) uchinchi o'g'li Shohruhning D) to'rtinchi o'g'li mironshohning
- Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik qilgan yillarni aniqlang.
A) 1451-1469-yy. B) 1409-1449-yy.
C) 1469-1506-yy. D) 1469-1494-yy.
- Qaysi hukmdor davrida Xuroson davlatining xo'jalik va madaniy hayoti ancha yuksak darajada rivojlangan?
A) Abu Sa'id davrida B) Sulton Husayn Boyqaro davrida
C) Sulton Badiuzzamon davrida D) Muzaffar Husayn Mirzo davrida
- Husayn Boyqaro vafot etgandan keyin kim Xurosonning hukmdori deb e'lon qilindi?
A) Bobur B) Badiuzzamon va Muzaffar Husayn
C) Boysunqur mirzo D) Sulton Ahmad
- XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda hukmronlik qilgan temuriy hukmdorlar qaysi variantda to'g'ri xronologik tartibda berilgan?
A) Abu Said – Sulton Ahmad – Sulton Mahmud – Boysunqur mirzo – Sulton Ali mirzo
B) Mirzo Ulug'bek – Abdullatif – Mirzo Abdullo – Sulton Ahmad - Abu Said
C) Abu Said – Sulton Ahmad – Sulton Ali mirzo - Sulton Mahmud
D) To'g'ri javob berilmagan.
- Bobur qayerda tug'ilgan?
A) Andijonda B) Axsikentda C) Buxoroda D) Samarqandda
- Bobur qachon Farg'ona taxtiga o'tqazildi?
A) 1483-yilda B) 1494-yilda C) 1501-yilda D) 1530-yilda
- Abu Said o'g'li Umarshayh mirzoni dastlab qaysi viloyatga hokim etib tayinlagan?
A) Kobulga B) Hisori Shodmonga C) Farg'onaga D) Toshkentga
- 1494-yilda Farg'ona ustiga yurish boshlagan temuriy hukmdorni aniqlang.
A) Sulton Ahmad B) Sulton Ali mirzo C) Sulton Mahmudxon D) Ahmad Tanbal
- Yosh Bobur taxtga o'tirgach, Farg'onaga qarshi yurish qilgan hukmdorlarni aniqlang.
A) Amakisi Samarqand hukmdori Sulton Ahmad mirzo
B) Tog'asi Toshkent hukmdori Sulton Mahmudxon
C) Amakivachchasi Boysunqur mirzo
D) A va B
- Boburning tog'asi – Toshkent hukmdori Sulton Mahmudxon qamal qilgan qo'rg'onni aniqlang.
A) Namangan B) Xo'qand C) Axsi D) Andijon
- Yosh Bobur Samarqand taxti uchun kurash boshlaganda bu yerda kim hukmronlik qilgan?
A) Sulton Ahmad mirzo B) Sulton Mahmud mirzo
C) Boysunqur mirzo D) Sulton Husayn Boyqaro
- Bobur tomonidan Samarqandning olinishi sanalarini aniqlang.
A) 1500, 1503, 1515-yy. B) 1499, 1502, 1514-yy.
C) 1498, 1501, 1513-yy. D) 1497, 1500, 1511-yy.
- 1497-yilda Bobur ikkinchi marta Samarqandni qamal qilganda bu shahar hukmdori Boysunqur mirzo kimdan yordam so'radi?
A) Toshkent hukmdori Sulton Mahmudxondan B) Akasi Buxoro hukmdori Sulton Mas'ud mirzodan
C) Inisi Sultonali mirzodan D) Shayboniyxondan
- Nega 1497-yilda Samarqand hukmdori Boysunqur mirzoning da'vati bilan bu yerga kelgan Shayboniyxon shaharni himoya qilishda unga yordam bermadi?
A) U Bobur bilan jang qilishdan qo'rqdi. B) Boburga Eron shohi Ismoil yordamga kelganligi uchun.
C) Boysunqur mirzo uni shahar ichkarisiga qo'ymaganligidan ranjiganligi sababli.
D) A va B
- 1497-yilda Bobur qo'shinlari tomonidan Samarqandning qamal qilinishi qancha davom etdi?
A) 7 oydan ziyod B) sal kam 7 oy C) 10 oyga yaqin D) 11 oy
- Samarqand shahrini birinchi marta olgan Bobur bu yerda qancha muddat hukmronlik qildi?
A) 50 kun B) 100 kun C) 1 yil D) 2 yil

- A) 1499-yilda B) 1500-yilda C) 1501-yilda D) 1504-yilda
6. 1500-yilda Shayboniyxon urushsiz egallagan shaharni aniqlang.
A) Samarqand B) Buxoro C) Toshkent D) Urganch
7. Muhammad Shayboniyxon Toshkent va Shohruhiya shaharlarini qachon egalladi?
A) 1501-yilda B) 1502-yilda C) 1503-yilda D) 1504-yilda
8. Shayboniylardan Ko'chkunchi sulton va Suyunchxojaxon kimning nabirasi edi?
A) Abu Saidning B) Mirzo Abdulloning C) Mirzo Ulug'bekning D) Shohruh mirzoning
9. 1504-yilda shayboniylar qaysi hududni egallab oldilar?
A) Xorazmni B) Farg'onani C) Xurosonni D) Badaxshonni
10. Muhammad Shayboniyxon qachon Urganch shahrini bosib oldi?
A) 1504-yilda B) 1505-yilda C) 1506-yilda D) 1507-yilda
11. 1506-1507-yillarda Shayboniyxonga qaysi hudud bo'ysundirildi?
A) Xuroson B) Xuttalon C) Chag'oniyon D) Marv
12. Shayboniyxon shoh Ismoilan ...
A) Makkaga borib tavba-tazarru qilishni talab qildi.
B) Shayboniyxon nomini xutbaga qo'shib o'qitishni talab qildi.
C) Shayboniyxon nomidan tangalar zarb etishni talab qildi.
D) A va B
13. Shayboniyxon 1510-yilda Eron shohi Ismoil Safaviy tomonidan o'ldirildi. Bu voqea qayerda ro'y berdi?
A) Samarqand yaqinida B) Balx yaqinida C) Marv yaqinida D) Nasaf yaqinida
14. Farg'ona hukmdori Boburga xat yo'llab, uni Samarqand taxtini egallashga da'vat etgan shaxsni aniqlang.
A) shayxulislom Abulmakorim B) qozikalon Burhoniddin
C) qo'zg'olon rahbari Devonai Panjsadmaniy D) To'g'ri javob yo'q.
15. Bobur va Shayboniyxon qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang qachon va qayerda ro'y berdi?
A) 1500-yilning kuzida, Samarqandda
B) 1501-yil aprelda, Zarafshon yaqinidagi Saripul qishlog'i yaqinida
C) 1512-yil 28-aprelda, Ko'li Malikda D) 1512-yil 24-noyabrda, G'ijduvonda
16. Bobur qachon Kobulda hokimiyatni qo'lga kiritdi?
A) 1501-yilda B) 1502-yilda C) 1504-yilda D) 1505-yilda
17. 1512-yilda shoh Ismoil yordamida Samarqandni uchinchi marta qo'lga kiritgan Bobur qanday xatoliklarga yo'l qo'ydi?
A) Shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e'lon qildi. B) 12 shia imomlarini xutbaga qo'shib o'qittirdi.
C) Ularning nomi bilan tangalar zarb qila boshladi. D) A, B, C
18. Bobur qachon Hindistonga yurish boshladi?
A) 1525-yilda B) 1526-yilda C) 1527-yilda D) 1528-yilda
19. 1526-yil 21-aprelda Bobur qaysi hukmdor qo'shinlarini tor-mor qildi?
A) Najmi Soniy B) Taxmasb C) Ibrohim Lo'diy D) Xusravshoh
20. Hindistonda Bobur tashkil etgan yirik saltanat («Buyuk mug'ullar imperiyasi») necha yil hukm surdi?
A) 232 y. B) 323 y. C) 332 y. D) 334 y.
21. Bobur qayerda dafn etilgan?
A) Agrada B) Dehlida C) Andijonda D) Kobulda
22. Bobur qalamiga mansub asarlarni aniqlang.
A) «Boburnoma» B) «Mubayyin» C) «Turkiy devon» D) A, B, C
23. «Boburnoma» qaysi mamlakatlar tarixi bo'yicha qimmatli manba hisoblanadi?
A) O'rta Osiyo B) Hindiston C) Eron D) A va B
24. Bobur ismining lug'aviy ma'nosini aniqlang.
A) «jasur» B) «musaffo» C) «sher» D) «baquvvat»
25. «Boburnoma» qaysi mamlakatlar tarixi, geografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi?
A) Movarounnahr B) Afg'oniston va Eron C) Hindiston D) Barcha javoblar to'g'ri.
26. «Hindiston ... bizning viloyatlardan o'zgacha olamdir. Tog' va daryosi, jangal va sahrosi, hayvonot va nabototi, eli va tili, yomg'iri va yeli – barchasi o'zgachadir...» Ushbu parcha qaysi asardan olingan?
A) «Boburnoma»dan B) «Humoyunnoma»dan C) Beruniyning «Hindiston» asaridan
D) Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla' us-sa'dayn» nomli asaridan
27. Boburning «Mubayyin» nomli asarida ... bayon qilingan.
A) muallifning mashaqqatli hayoti B) lirik kechinmalar nozik yo'l
C) soliq yig'ishning qonun-qoidalari D) Barcha javoblar to'g'ri.
28. Boburning 510-yilligi qachon nishonlandi?
A) 1990-yilda B) 1991-yilda C) 1992-yilda D) 1993-yilda
29. Qaysi shaharda Boburga haykal o'rnatildi?

8-sinf O'zbekiston tarixi, I bob, 3-variant

1. Muhammad Shayboniyxondan so'ng Movarounnahrda hukmronlik qilgan xonlar qaysi javobda to'g'ri xronologik tartibda berilgan?
A) Ko'chkunchixon - Abu Said – Ubaydullaxon – Abdullaxon I
B) Ubaydullaxon – Sulton Mahmud – Suyunchxoja sulton – Abdullaxon II
C) Abu Said - Abdullaxon I - Abdulazizxon – Suyunchxoja sulton
D) Abu Said – Ubaydullaxon – Abdullaxon I – Abulfayzxon
2. Qaysi hukmdor davridan Shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb ataladigan bo'ldi?
A) Ko'chkinchixon B) Ubaydullaxon C) Abdullaxon I D) Abdullaxon II
3. Abdullaxon I ning qisqa hukmronligidan so'ng ...
A) mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi.
B) mamlakat bir necha mustaqil hokimliklarga bo'linib ketdi.
C) markazlashgan davlat tashkil topdi. D) A va B
4. Abdullaxon II ning otasi Iskandar sulton qaysi viloyat hokimi edi?
A) Farg'ona B) Miyonqol C) Buxoro D) Toshkent
5. Buxoro taxtini egallashda Abdullaxonga madad bergan din peshvosini aniqlang.
A) Hoji Hoshimiy B) Muhammad Islom C) Sultonxo'ja D) Xoja Ahror
6. Abdullaxon II qachon Buxoro taxtini egalladi?
A) 1556-yilda B) 1557-yilda C) 1558-yilda D) 1559-yilda
7. Abdullaxon II quyidagi qaysi hududni nisbatan ilgariroq zabt etgan?
A) Balxni B) Samarqandni C) Toshkentni D) Farg'onani
8. Movarounnahrni yagona markazlashgan davlatga aylantirgan shayboniy hukmdorni aniqlang.
A) Abdullaxon I B) Abdulazizxon C) Abulfayzxon D) Abdullaxon II
9. So'nggi Shayboniy hukmdorni aniqlang.
A) Abdullaxon I B) Abdullaxon II C) Abdulmo'minxon D) Pirmuhammadxon
10. Abdullaxon II ning vafotidan so'ng Eron shohi Abbas egallab olgan hududlarni aniqlang.
A) Nishopur B) Sabzavor C) Mashhad va Xirof D) Yuqoridagilarning barchasi.
11. Pirmuhammadxon qachon va qayerda qozoq xoni Tavakkalning qo'shinlarini tor-mor etdi?
A) 1598-yilda, Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida
B) 1599-yilda, Miyonqolning Uchqora mavzeyida
C) 1600-yilda, Samarqand yaqinidagi Dahbed qishlog'ida
D) 1601-yilda, Toshkent viloyatidagi Chinoz qishlog'ida
12. Pirmuhammad qachon qatl etildi?
A) 1599-yilda B) 1600-yilda C) 1601-yilda D) 1602-yilda
13. Movarounnahrda Shayboniylar sulolasining hukmronligi ... davom etdi?
A) bir asr B) 152 yil C) ikki asr D) sal kam uch asr
14. O'zbek xalqi tarkibiga nechta urug' kiradi?
A) 29 ta B) 92 ta C) 52 ta D) 102 ta
15. O'zbek xalqi qachon «o'zbek» degan nom bilan atala boshlandi?
A) XIII asrdan B) XIV asrdan C) XV asrdan D) XVI asrdan
16. Shayboniyxon o'z davlatini iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash maqsadida qanday islohotlar o'tkazdi?
A) Davlat boshqaruvida suyurg'ol tizimini joriy etdi.
B) Yer-suv qaytadan taqsim qilindi. C) Pul islohotini o'tkazdi. D) Ta'lim tizimini isloh qildi.
E) Barcha javoblar to'g'ri.
17. Movarounnahrda pul islohotini o'tkazgan Shayboniy hukmdorlarning ismi-sharifi qaysi varianta to'liq va to'g'ri berilgan?
A) Muhammad Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon I

- B) Kuchkunchixon, Navro'z Ahmadxon, Iskandar sulton
 C) Muhammad Shayboniyxon, Kuchkunchixon, Abdullaxon II
 D) Abu Sayyid, Ubaydullaxon, Pirmuhammadxon
18. Shayboniy hukmdor Abdullaxon II pul islohoti o'tkazganligini bilasiz. U qanday pullar zarb etgan?
 A) kumush B) mis C) oltin D) Barcha javoblar to'g'ri.
19. Qaysi Shayboniy hukmdor davrida sun'iy sug'orish ishlari ayniqsa keng rivojlandi?
 A) Shayboniyxon B) Kuchkunchixon C) Abdullaxon I D) Abdullaxon II
20. Abdullaxon davrida Murg'ob vohasida qurilgan suv omborini aniqlang.
 A) Hovuzixon B) Abdullaxonbandi C) Chahorminor D) Tuyatortar
21. Tuyatortar kanali qayerda bunyod etilgan?
 A) Zarafshon vohasida B) Murg'ob vohasida C) Jizzax vohasida D) Somonjuq dashtida
22. 1577-yilda Abdullaxon tomonidan bunyo etilgan inshootni aniqlang.
 A) Abdullaxon bandi B) Jondor suvayirg'ichi C) Afshona kanali D) Abdullaxon timi
23. Shayboniylar davrida rivojlangan hunarmandchilik sohalarini aniqlang.
 A) kulolchilik, temirchilik B) qurolsozlik, zargarlik
 C) qog'oz va qurilish ashyolarini ishlab chiqarish D) Barcha javoblar to'g'ri.
24. Shayboniylar hukmronligi davrida oliy davlat idorasi nima deb atalgan?
 A) Ark B) Borgoh C) Dargoh D) O'rda
25. Shayboniylar davrida moliya va xo'jalik ishlarini ... boshqargan.
 A) devonbegi B) naqib C) mustavfiy D) mushrif
26. Buxoro xonligida naqib qanday vazifalarni bajargan?
 A) Xonning birinchi maslahatchisi bo'lgan. B) Harbiy yurishlarni uyushtirgan.
 C) Elchilik vazifasini bajargan. D) A, B, C
27. Buxoro xonligidagi mansabdor shaxslar va ularning vaziflari qaysi variantda xato berilgan?
 A) otaliq – shahzodalarning nazoratchisi
 B) dodxoh – dargohga tushgan arizalarga javob qaytaruvchi
 C) shig'ovul – chet davlatlar elchilarini qabul qilish xizmatining boshlig'i
 D) qo'rchiboshi – qurol-aslaha xizmati boshlig'i
 E) eshikog'aboshi – bosh vazir
28. Buxoro xonligidagi mansadorlar va ularning vazifalari qaysi javobda to'g'ri berilgan?
 1. ko'kaldosh; 2. xon yasovuli; 3. muhtasib; 4. miroxur; 5. shayxulislom; 6. qozikalon;
 a) Shariat qonunlari bajarilishi ustidan nazorat qilish; b) Sud ishlariga yetakchilik qilgan; c) Xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rgangan; d) Xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar bilan shug'ullangan; e) Xonga tegishli yilqi, ot-ulov va ularning ta'minoti bilan shug'ullangan; f) Fuqarolarning axloq qoidalarini nazorat qilgan.
 A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d, 5-e, 6-f B) 1-c, 2-d, 3-f, 4-e, 5-a, 6-b
 C) 1-b, 2-d, 3-f, 4-a, 5-b, 6-c D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-c, 5-f, 6-b
29. Shayboniylar davrida yer egaligining qanday turlari mavjud bo'lgan?
 A) iqto B) suyurg'ol C) tanho D) jogir E) Yuqoridagilarning barchasi.
30. Shayboniylar davlati ...
 A) markazlashgan davlat edi. B) suyurg'ollarga bo'linib idora qilinar edi.
 C) xalq ommasi tomonidan qo'llab-quvvatlanar edi. D) Barcha javoblar o'g'ri.
31. Shayboniylar davrida aholidan necha xil soliq va to'lovlar olinardi?
 A) 10 turdan ortiq B) 15 xil C) 20 ga yaqin D) 20 turdan ortiq

8-sinf O'zbekiston tarixi, I bob, 4-variant

1. Shayboniylar davlatida yer solig'i daromadning necha foizini tashkil etardi?
 A) 10-15 foizini B) 15-20 foizini C) 20-30 foizini D) 30-40 foizini
2. Shayboniylar davrida aholining davlat foydasiga bajaradigan mehnat majburiyati qanday nomlangan?
 A) begar B) yasoq C) salg'ut D) jul
3. Davlat muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'planadigan soliq nima deb atalgan?
 A) xiroj B) yasoq C) ixrijot D) zakot
4. Shayboniylar Safaviylarga qarshi kurashda kim bilan ittifoq tuzishga intilganlar?
 A) Boburiylar bilan B) Turkmanlar bilan C) Xiva xoni bilan D) Xitoy bilan
5. Abdullaxon II qachon Hindistonga birinchi marotaba elchi yubordi?
 A) 1557-yilda B) 1572-yilda C) 1577-yilda D) 1585-yilda
6. Abdullaxon II 1577-yilga Hindistonga ikkinchi marta elchilar yuborib, Akbarshohga Eronni o'aro taqsimlab olishni taklif etgan edi. Nima sababdan Akbarshoh bu taklifga rozi bo'lmadi?

- A) Yetarli harbiy kuchga ega bo'lmaganligi uchun
 B) Hindiston va Eron o'zaro yaxshi munosabatda bo'lmaganligi uchun
 C) U Hindiston shimolidagi Sind va Kashmir knyazliklarini bosib olishga tayyorgarlik ko'rayotgan edi.
 D) U Bengaliyani bosib olishga tayyorgarlik ko'rayotgan edi.
7. Badaxshon Abdullaxon II tomonidan qachon bosib olindi?
 A) 1572-yilda B) 1577-yilda C) 1584-yilda D) 1585-yilda
8. 1585-yilda Abdullaxon II Akbarshoh huzuriga uchinchi marta elchi yubordi. Elchi orqali yuborgan maktubida u Badaxshonning fath etilishi sabablarini qanday izohladi?
 A) Makka va Madinaga olib boradigan yo'l shu yerdan o'tganligi va bu hududni g'ayridinlar egallab olganligi bilan
 B) Abdullaxon qimmatbaho toshlarga boy bo'lganligi bilan
 C) Badaxshon unga ota meros joy bo'lganligi bilan
 D) Abdullaxon bu voqeani izohlashni lozim topmadi.
9. Nima sababdan Buxoro xonligi va Boburiylar davlati o'rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushdi?
 A) Badaxshon hokimi, Abdullaxon II ning o'g'li Abdulmo'min Akbarshohga maktub yo'llab, undan boshpana berilgan badaxshonlik isyonchilarni Buxoroga qaytarib yuborishni talab qildi.
 B) Abdulmo'min Akbarshohdan unga qizini nikohlab berishni talab qildi.
 C) Abdulmo'min Akbarshohdan Hindistonning bir qismini tortiq qilishni talab qildi.
 D) Barcha javoblar to'g'ri.
10. Usmonli turk sultoni Boyazid II bilan Eron Safaviylariga qarshi kurash to'g'risida shartnoma imzolagan hukmdor kim?
 A) Shohrux mirzo B) Muhammad Shayboniyxon C) Abdullaxon II D) Ubaydullaxon I
11. Usmoniyilar Movarounnahrning qaysi hukmdorini qo'llab-quvvatlab, unga yordam berish uchun harbiy kuch jo'natgan?
 A) Ko'chkunchixonga B) Navro'z Ahmadxonga C) Abdullaxon II ga D) Pirmuhammadxonga
12. Buxoro xonligi va Eron manfaatlari to'qnashgan nuqta ... edi.
 A) Xuroson B) Badaxshon C) Kavkaz D) Turkmaniston
13. 1557-1558-yillarda Abdullaxon II qayerga elchilar yubordi?
 A) Hindistonga B) Moskvaga C) Eronga D) Istambulga
14. Antoniy Jenkinson qaysi savdo kompaniyasi vakili edi?
 A) "Ost-Indiya" kompaniyasi B) "Gvineya" savdo kompaniyasi
 C) "Moskva" savdo kompaniyasi D) "Vest-Indiya" savdo kompaniyasi
15. "Moskva savdo kompaniyasi" qachon tashkil qilingan?
 A) 1530-yilda B) 1557-yilda C) 1558-yilda D) 1555-yilda
16. Rus elchisi Antoniy Jenkinson qalamiga mansub asarni aniqlang.
 A) «Peterburgdan Moskvaga sayohat» B) «Orenburgdan Buxoroga sayohat»
 C) «To'qqiz yillik sargardonlik»
 D) «Samarqandga Temur saroyiga 1402-1406-yilgi sayohat kundaligi»
 E) «Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat»
17. XVI asrda Toshkentda qurilgan madrasalarni aniqlang.
 A) Baroqxon va Ko'kaldosh B) Abdullaxon va Modarixon
 C) Xoja Ahror va Tillakori D) Tunqator va Hokim oyim
18. Shayboniyilar davrida madrasada o'qish necha yil davom etgan?
 A) 2 yil B) 7 yil C) 21 yil D) 23 yil
19. O'z davrining o'qimishli odamlari bo'lgan hukmdorni aniqlang.
 A) Shayboniyxon B) Ko'chkunchixon C) Ubaydullaxon D) A, B, C
20. Abdullaxonning muallimi bo'lgan shaxsni aniqlang.
 A) Kamoliddin Ibrohim B) Xoja Muhammad C) Qiyomiddin Shaydo D) Hakim Shohruhbiy
21. «Tabiblar iftixori» («Ifitixor ul-atibbo») unvonini olishga sazovor bo'lgan olimni aniqlang.
 A) Ibn Sino B) Gippokrat C) Muhammad Mazid D) Mavloni Baqo
22. Xoja Hasan Nisoriy qalamiga mansub asarni aniqlang.
 A) «Abdullanoma» B) «Ubaydullonoma» C) «Tuhfai amir» D) «Muzakkiri ahbob»
23. Ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan tabibni aniqlang.
 O'zbek, fors va arab tillarida ijod qilgan shoirni aniqlang.
 A) Lutfiy B) Navoiy C) Ubaydullaxon D) Muhammad Solih
24. Masjidi Kalon (1540-1541-yy.) qaysi shaharda qurildi?
 A) Buxoroda B) Samarqandda C) Andijonda D) Toshkentda
25. Quyidagi madrasalardan qaysi biri Buxoroda bunyod etilmagan?
 A) Mir Arab B) Modarixon C) Fathulla qushbegi D) Govkushon
 E) To'g'ri javob yo'q.

26. Shayboniyilar davrida Samarqandda bunyod etilgan madrasalarni aniqlang.

A) Shayboniyxon madrasasi B) Abdurahim Sadr madrasasi

C) Oyposhsha oyim madrasasi D) A va B

27. «Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtli imoratlar, serhasham binolar ko'p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, ularning misli dunyoda yo'qdir». Ushbu satrlar kimning qalamiga mansub?

A) Venger sayyohi German Vamberi qalamiga B) Ingliz elchisi Antoniy Jenkinson qalamiga

C) Rus elchisi Florio Beneveni qalamiga D) Rus sharqshunos olimi Xanikov qalamiga